Muhim mavzu: bino va inshootlar seysmik mustahkamligi va uni ta’minlash masalalariga bag’ishlangan xalqaro konferensiya

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bino va inshootlarning zilzilabardoshligi, global isish sharoitida infratuzilmalarning ishonchliligini oshirishning dolzarb muammolariga bag’ishlangan 2 kunlik xalqaro konferensiya o’tkazildi.

Koferensiya AQShning O’zbekistondagi elchixonasi, Xalqaro ta’lim bo’yicha Amerika Kengashi, Berkli shahridagi Kaliforniya universiteti hamkorlikda tashkil etildi.

Konferensiyada respublikamizdan, AQSh, Qirg’izistondan yetakchi ilmiy tekshirish institutilari va universitetlari vakillari oflayn va onlayn ishtirok etdi.

Konferensiya mavzusi bo’lgan bino va inshootlarning zilzilabardoshligi va global isish sharoitida shaharlar va hududlar infratuzilmalarning ishonchliligini oshirishning dolzarb muammolari va ularning rivojlanishining zamonaviy bosqichlari masalasi, nafaqat O’zbekiston, balki, Markaziy Osiyo hududidagi barcha mamlakatlar uchun tegishlidir. Ushbu muammo oxirgi yillarda shaharlarning jadal rivojlanish jarayonida juda aktual masala hisoblanadi.

Mazkur konferensiyaning bosh maqsadi qurilish sohasida zilzilabardoshlikni ta’minlash bo’yicha tajribalar, bilim va erishilgan muvaffaqiyatlarni, global isish sharoitida vujudga keladigan masala va muammolarni aniqlash borasida o’zaro fikr almashishga imkon beradi.

Ilmiy aloqalarning mustahkamlanishi ilmiy tadqiqotlarni va dunyodagi yetakchi ilmiy markazlar imkoniyatlaridan foydalanib regional hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.